



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “18” aprel

BUYRUQ № 39

Toshkent sh.

“Uy-joy egalari tomonidan o‘z iste‘moli uchun ishlab chiqarilgan yashash xizmatlarini baholash bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, uy-joy egalari tomonidan o‘z iste‘moli uchun ishlab chiqarilgan yashash xizmatlarini baholash bo‘yicha xalqaro statistika amaliyotidan kelib chiqib, statistika uslubiyatini takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Uy-joy egalari tomonidan o‘z iste‘moli uchun ishlab chiqarilgan yashash xizmatlarini baholash bo‘yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Davlat statistika qo‘mitasining 2020- yil 29- avgustdagi “Uy-joy egalari tomonidan o‘z iste‘moli uchun ishlab chiqarilgan yashash xizmatlarini baholash bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 31- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov